MURUVVAT – XALQIMIZGA XOS EZGU XISLAT

Uchkoʻprik tumanida koronavirus pandemiyasi bilan bogʻliq vaziyat tufayli odamlarning koʻchaga chiqmasdan uyda qolishlari uchun barcha imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda.

Kam taʼminlangan hamda ijtimoiy koʻmakka muhtoj oilalarga oziq-ovqat mahsulotlari etkazib berish, aholini koronavirus infeksiyasiga qarshi kurashda birlamchi vositalar bilan bepul taʼminlash boʻyicha xayrli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash Uchkoʻprik tumani boʻlimi qoshida homiylik xayriyalarini muvofiqlashtirish markazi tashkil etildi.

Markazga xayriya va homiylik asosida taqdim etiladigan oziq-ovqat mahsulotlari mahallalar kesimida shakllantirilayotgan roʻyxat boʻyicha ehtiyojmand oilalar, yolgʻiz keksalar, nogironligi boʻlgan shaxslar va aholining boshqa yordamga muhtoj qatlamiga karantin talablariga qatʼiy rioya etilgan holda etkazib berilyapti.

Jumladan, 16 aprel kuni tuman hokimi oʻrinbosari SHuhratjon Pozilov hamda mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash boʻlimi mutasaddilari tomonidan Sariqoʻrgʻon, YAngier, Qurbonqashqar, Tojik, Oqsuv, YAkkatut qishloqlaridagi 20 ta ehtiyojmand oilaga 9 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari etkazib berildi.

SHunday sinovli kunlarda xalqimizning hamjihatligi, bagʻrikeng va saxovatpesha insonlarning ehtiyojmand oilalarga koʻrsatayotgan koʻmaklari tahsinga sazovordir.

2020-04-18 17:15:16